

Yusuf Ya'qubga elchi jo'natdi



21:00 / 27.06.2019 2008

23

Yusuf Ya'qubni ko'rishga oshiqdi. Qanday ham oshiqmasin, axir ayriliq uzoq cho'zilgan edi-ku?

Hozir nima uchun toqat qilsin, axir sir oshkor bo'lgan-ku?

Qanday qilib ovqat va suv uning tomog'idan o'tsin, axir otasining ovqati, suvi, hatto uyqusida ham halovat yo'q-ku?

Sir ochilib bo'ldi. Sir aniq bo'ldi. Alloh Ya'qubning ko'zlari (yana) ko'rishini xohladi.

Ya'qub ko'p yig'lagani va mahzun bo'lganidan ko'zi ojiz bo'lib qolgan.

Yusuf: «**Mening mana bu ko'ylagimni olib borib, otamning yuziga tashlang, ko'zi ochilur. So'ngra ahlingiz ila jam bo'lib, huzurimga kelinglar**», dedi.